



Xalq so'zi

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 27-iyun, № 127 (8750)


Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI TURKIYA DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-iyun kuni
amaliy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turgan Turkiya milliy mudofaa vaziri
Yashar Gyuler boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida Turkiya mudofaa idorasi rahbari O'zbekiston yetakchisiga Prezident Rejep Tayyip Erdog'anning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Anqara shahriga 5-6-iyun kunlari amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrif chog'ida erishilgan kelishuvlarni hisobga olgan holda O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Harbiy va harbiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari, jumladan, yaqin idoralararo aloqalarni mustahkamlash, qo'shma tadbirlar tashkil etish, harbiy mutaxassislarni tayyorlash va boshqa masalalar muhokama qilindi.

Xavfsizlik sohasida, terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashishda hamkorlikni mustahkamlash va muvofiqlashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, shu jumladan, Afg'onistondagi vaziyat yuzasidan ham fikr almashildi.

O'zA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'IRISIDA

Mamlakatimizda so'z va matbuot erkinligini rivojlantirish, xalqimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini mustahkamlash, demokratik islohotlarni amalga oshirish yo'lida faollik ko'rsatib kelayotgani, global axborot maydonida milliy manfaatlarimizni himoya qilish, yurtimizdagi yangilanish jarayonlarini yoritish, erishilayotgan yutuqlarni keng targ'ib etishdagi katta xizmatlari, zamonaviy media tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasidagi samarali faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Mehnat shuhrati”
ordeni bilan

Taypatov Abdijalol Gapparovich — O'zbekiston Milliy axborot agentligining hududiy axborot tahririyati bosh muharriri

Temirov Sobirjon G'ulamovich — Beshariq tumani “Beshariq tongi” gazetasi bosh muharriri, Farg'ona viloyati

“Do'stlik” ordeni bilan

Abdusamatova Mukaddas Salixovna — O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi va Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, publitsist

Beknazarova Saodat Uzbekovna — “Ovozi tojik” gazetasi katta muharriri

Djurayeva Dilfuza Djangirovna — O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi, publitsist, Surxondaryo viloyati

Klyaskiy Grigoriy Nikolayevich — “Ishonch-Doveriye” gazetasi bo'lim muharriri

Levchenko Sergey Vladimirovich — “Narodnoye slovo” gazetasi bo'lim muharriri

Nugmanov Ravshan Yakubdjaniyevich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Toshkent radioeshittirish uyi ovoz yozish xizmati rejissyori

Ochilov Quadrat Mengliyevich — “Bir safda” jurnali mas'ul kotibi

Paluanova Mnyim Pirnazarovna — “Nukus-Sayahat” mas'uliyati cheklangan jamiyatining “Jaslar-TV” telekanali va “Nukus-FM” radiosi direktori, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Sodikov Ikrom Mamadaliyevich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Namangan viloyati teleradiokompaniyasi direktori o'rinbosari

Toxirov Xalimjon Turgunovich — “Andijonoma” va “Andijanskaya pravda” gazetalar tahririyatining “Andijonoma.uz” internet nashri muharriri

Xakimov Talip Adilovich — Nurafshon shahri “Mash'al” gazetasi bosh muharriri, Toshkent viloyati
II darajali “Sog'lom avlod uchun” ordeni bilan
Boymirzayeva Saodat Urakovna — O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining matbuot kotibi

Muminov Fayzullo Abdullayevich — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining jamoatchilik bilan aloqalar kafedrası professori

Xasanova Zaxro Tulkunovna — “Gulxan” jurnali bosh muharriri

“Sog'lom turmush”
medali bilan

Imomxo'jayev Zafar Axbarovich — O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi raisining axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi — matbuot kotibi

“Kelajak bunyodkori” medali bilan
Abduraximov Muslimbek Fozil o'g'li — “Zo'r TV” telekanalining “Bu kun” informatsion dasturi rahbari

“Shuhrat” medali bilan

Abdukadirov Dilshod Axmedjanovich — “Kun.uz” internet nashri bosh muharriri

Abduraxmanova Feruza Abduganiyevna — “Mening yurtim” telekanali boshlovchisi

Abidov Aziz Agzamovich — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi boshlig'i — matbuot kotibi

Alimuxamedov Tuygun Vaxabovich — “O'zbekiston ko'zi oqizlar bosmaxonasi” davlat unitar korxonasi muqovalovchisi

Bazarov Baxriddin Xaydarovich — “Akademnashr NMM” mas'uliyati cheklangan jamiyati bosh rassomi

Bayturayeva Guljamal Orinbasarovna — “Nurlı jol” gazetasi bo'lim mudiri

Voxidova Nozima Raximovna — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Madaniyat va ma'rifot telekanali” davlat muassasasi kino-videomahsulotlar va tezkor dublyaj muharriri

Gulyamova Dilfuza Izzatovna — “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalar tahririyatining Navoiy viloyati bo'yicha maxsus muxbiri

Djamalov Kaxramon Djumayevich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O'zbekiston 24” telekanali muharrirlar guruhi bosh muharriri

Djumaboyeva Raxima Mustafayevna — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Sirdaryo viloyati teleradiokompaniyasi televideniye guruhi katta muharriri

Zokirova Tursuntosh Normurodovna — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Jizzax viloyati teleradiokompaniyasi radio guruhi muxbiri

Inoyatova Nazira Saypullayevna — “Avtoradio” radiosi dasturlar bo'yicha direktori va efir boshlovchisi
Klichbayev Abatbay Reimbayevich — Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi qo'lyozmalar, nopyot va alohida qiymatga ega nashrlar xizmati rahbari

Matchanova Intizor Jumaboyevna — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O'zbekiston 24” telekanali Xorazm viloyati bo'yicha muxbiri

Murotova Muslima Kamoliddinovna — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O'zbekiston” radiokanalı rejissyorlar guruhi suxandoni

Niyazov Norbek Ramazanovich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O'zbekiston 24” telekanali yangiliklar muharriri bosh muharriri

Pirnafasova Muhayyo Rustamovna — “Jadid” gazetasi adabiy muharriri

Saidov Sherodil Xudayberdiyevich — “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasining chop etish sexi ustasi

Sulaymanova Aliya Ismailovna — “Darakchi.uz” internet nashri bosh muharriri

Sulaymonov Shodmon Sultonovich — “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalar tahririyati bosh muharriri, Buxoro viloyati

Shamsiddinov Yolqin Xakimovich — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati huzuridagi Media-markazi yetakchi mutaxassisi

Eshonqulov Zamon Asrorovich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi televideniye guruhi maxsus muxbiri

Yusupov Ahmad Mengnimuratovich — “Daryo.uz” internet nashri bosh muharriri

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 25-iyun

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Qadrlı do'stlar!

Avvalambor, o'z iste'dodi va mahorati, fidokorona mehnati bilan el-yurtimizga siddiqdildan xizmat qilib kelayotgan siz, milliy jurnalistikamiz jonkuyarlarini, soha rivojiga munosib hissa qo'shgan muhtaram faxriylarimizni 27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan chin qalbimdan samimiy muhrakbod etib, barchangizga yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Ma'lumki, axborot sohasini erkinlashtirish va rivojlantirish Yangi O'zbekistonda barpo etish jarayonida biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelmoqda. Mamlakatimizning yangilangan Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha muhim qoida va tamoyillar mustahkamlab qo'yilgani, sohaga doir huquqiy asoslar takomillashtirib borilayotgani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Ayniqsa, keyingi yillarda yurtimizda so'z erkinligi va fikrlar xilmaxilligiga erishish yo'lida keng imkoniyatlar ochilayotgani media vositalari vakillarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, o'rni va nufuzini yanada kuchaytirmoqda.

Bugungi kunda jamiyatimizda ochiqlik va oshkoralikni rivojlantirish, davlat idoralari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, fuqarolarimizning qonuniy murojaatlarini o'rganish va hal qilish borasida sizlarning o'ringiz va ta'siringiz tobora ortib borayotganini barchamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Shu o'rinda gazeta va jurnallarimiz, tele va radiokanallar, ijtimoiy tarmoqlarda turli mavzulardagi dolzarb chiqishlar, muammoli masalalar yuzasidan mutaxassis va ekspertlar ishtirokidagi ko'rsatuv va eshittirishlar, tahliliy sharhlar, bahs-munozaralar sezilarli ravishda ko'payganini ta'kidlash lozim.

Xususan, qurilish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashdagi kamchiliklar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi muammolar bo'yicha berib borilayotgan tanqidiy va tahliliy materiallar joylarda mudrab o'tirgan ayrim rahbar va mutasaddilarni uyqudan uyg'otib, yangicha ishlab, odamlarning tashvishi bilan yashashga majbur qilmoqda.

Muxtasar aytganda, kuyunchak va oliyjanob jurnalistlarimiz, faol bloggerlarimiz o'zlarining qat'iy pozitsiyasi, haqqoniy so'zi bilan hayotimizdagi o'tkir muammolarni hal etish, islohotlarimizning samarasini oshirish, yurtdoshlarimizning fikrini, dunyoqarashini yuksaltirishga munosib hissa qo'shmoqdalar.

Hech shubhasiz, bularning barchasi milliy media vositalarimiz “to'rtinchi

hokimiyat” darajasiga yaqinlashib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday yuksak marraga yetish oson emasligi, bu yo'lda to'siq va qiyinchiliklar bo'lishi tabiiydir.

Lekin, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu boradagi ishlarni qat'iyat bilan davom ettiramiz.

Muhtaram do'stlar!
Bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat “to'rtinchi hokimiyat”, balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda.

Bu esa mazkur yo'nalishda aynan sizlardek jasur va dovyurak, Vatanni chin dildan sevadigan, o'z kasbiga sodiq va fidoyi insonlar tobora ko'proq bo'lishini taqozo etmoqda.

Ana shu talabdan kelib chiqqan holda, ko'p qirrali professional bilim va malakaga, yuksak ma'naviy-intellektual fazilatlariga ega bo'lgan zamonaviy jurnalist kadrlar tayyorlash bundan buyon ham ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Shu bilan birga, axborot maydonini sifatli va raqobatdosh milliy kontent bilan to'ldirish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib borayotgani barchamiz uchun ayon haqiqatdir.

Shu bois, dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarni milliy manfaatlarimizni hisobga olgan holda, tezkor va chuqur tahlillar asosida yoritib borish o'ta muhim, deb o'ylayman.

Shuningdek, bugungi kunda yolg'on va asossiz ma'lumotlarni tarqatish orqali odamlarni aldash, to'g'ri yo'ldan chalg'itish holatlari ko'payib borayotgani aholining media savodxonligini oshirishni oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan vazifa qilib qo'ymoqda. Axborot maydonida yuzaga kelayotgan bahsli tortishuv va muammolar faqat va faqat qonun doirasida, huquqiy me'yorlar negizida hal etilishi shart.

Siz, hurmatli media tarmoqlari vakillari ana shunday masalalarni hal etishda faol ishtirok etasiz, deb ishonaman.

Albatta, sohada xizmat qilyotgan barcha yurtdoshlarimizning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning mashaqqatli mehnatini rag'batlantirish masalalari bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Ushbu quvonchli ayyomda sizlarni qutlug' kasb bayramingiz bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, sharafli faoliyatingizda yangi yutuq va omadlar, xonadoningizga tinchlik va fayzu baraka tilayman.

Fursatdan foydalanib, bugungi bayram munosabati bilan yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan ommaviy axborot vositalari xodimlarini chin dildan qutlayman.

Izlanish va ilhom zavqi, yangi ijodiy yutuqlar sizlarga hamisha yor bo'lsin, azizlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

E'tirof

FIDOKORONA MEHNATGA BERILGAN MUNOSIB BAHO

Poytaxtimizda 27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Unda parlament a'zolari, vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari vakillari, ijodkorlar, faxriy jurnalistlar, noshirlar, matbaachilar, oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari qatnashdi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning sana munosabati bilan soha xodimlariga yo'llagan tabrigini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot kotibi Sherzod Asadov o'qib eshittirdi.

Tabrikda ta'kidlanganidek, axborot sohasini erkinlashtirish va rivojlantirish Yangi O'zbekistonda barpo etish jarayonida biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelmoqda. Mamlakatimizning yangilangan Konstitutsiyasida ommaviy axborot

vositalarining erkin faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha muhim qoida va tamoyillarga qo'yilgani, sohaga doir huquqiy asoslar takomillashtirib borilayotgani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Ayniqsa, keyingi yillarda yurtimizda so'z erkinligi va fikrlar xilmaxilligiga erishish yo'lida keng imkoniyatlar ochilayotgani media vositalari vakillarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, o'rni va nufuzini yanada kuchaytirmoqda.

Mamlakatlarimiz istiqboliga yoʻnaltirilgan muhim bitimlar imzolandi

Mamlakatimiz tashqi siyosatida ochiqlik va barcha davlatlar bilan oʻzaro manfaatli munosabat oʻrnatish maqsadi yetakchilik qiladi. Shu bois oxirgi yillarda mamlakatimiz Prezidentining saʼy-harakati bilan nafaqat mintaqamizdagi, balki dunyoning turli joylaridagi davlatlar bilan izchil aloqalar yoʻlga qoʻyib kelinmoqda. Buni Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifi bilan Moʻgʻuliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning yurtimizga amalga oshirgan ilk tashrifi hamda shu jarayonda erishilgan kelishuvlar va boshqa natijalar misolida ham koʻrish mumkin.

Fikr

Avvalo, tashrif davomida har ikki davlat istiqboliga yoʻnaltirilgan muhim bitimlar imzolanganini alohida taʼkidlab oʻtish zarur. Ayni chogʻda samimiy tarzda kechgan uchrashuvda siyosiy muloqot va parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash va xalqaro tashkilotlar doirasida oʻzaro qoʻllab-quvvatlashni izchil davom ettirish hamda xavfsizlik sohasida aloqalarni faollashtirish masalalari eʼtibor markazida boʻldi.

Muzokaralar davomida savdo-iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish masalasi keng tahlildan oʻtkazildi. Yaqin yillarda oʻzaro savdo hajmini, avvalo, talab yuqori mahsulotlar nomenklaturasi hamda hajmini kengaytirish va pirovardida savdo hajmini 5 – 10 barobarga oshirish, buning uchun yetarli salohiyat mavjudligi urgʻulab oʻtiladi. Darhaqiqat, har ikkala davlatning bu borada imkoniyatlari katta. Faqatgina ulardan toʻgʻri foydalanishni yoʻlga qoʻyish talab etiladi, xolos.

Aytish joizki, muzokaralar asnosida madaniy-gumanitar aloqalar va almashinuvlarni mustahkamlashga jiddiy eʼtibor qaratildi. Bu bejiz emas. Zero, har

ikkala mamlakatda shu yoʻnalishlarda katta tajriba mavjud boʻlib, ulardan samarali foydalanish tomonlar manfaatiga birdek xizmat qiladi.

Bir paytlar bizdagi oliy oʻquv yurtlarida oʻqigan moʻgʻulistonliklar bugun doʻstlik va hamkorlik rishtalarini mustahkamlashda oʻziga xos koʻpriklarni vazifasini oʻtamoqda. Demak, bu boradagi ishlarni qaytadan yoʻlga qoʻyishimiz kerak boʻladi. Eng nufuzli universitetlar oʻrtasida akademik almashinuvlarni yoʻlga qoʻyish, grantlar asosida iqtidorli moʻgʻulistonlik yoshlarni Oʻzbekistonda oʻqitishni qayta tiklash bugun juda muhim. Erishilgan kelishuvlar bu borada muhim ahamiyat kasb etadi, deb oʻylaymiz.

Kezi kelganda, ikki davlat xalqlarini yanada yaqinlashtirish maqsadida Gumanitar hamkorlik dasturini tayyorlash hamda kelgusi yilda Toshkent va Ulan-Batorda madaniyat kunlarini oʻtkazish taklif qilinganini mamnuniyat bilan qayd etmoqchimiz. Negaki, bunday tadbirlarning xalqlarimizni bir-biriga yaqinlashtirishdagi oʻrni beqiyos.

Ikki mamlakat oʻrtasida mavjud vizasiz

tartibni inobatga olgan holda, qoʻshma dasturlar va mahsulotlar asosida turizm almashinuvlarini izchil rivojlantirish muhimligi taʼkidlandi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofazalash, sport va yoshlar sohaslarida hamkorlik yoʻlga qoʻyish boʻyicha ham kelishuvlarga erishildi.

Shu oʻrinda Moʻgʻuliston Prezidenti boshchiligidagi delegatsiya Oliy Majlis Senatida boʻlib, senatorlar bilan muloqot oʻtkazganini taʼkidlash oʻrinli. Uchrashuvda Uxnaagiyn Xurelsux ikki davlat yetakchilarining siyosiy irodasi tufayli bugun Oʻzbekiston – Moʻgʻuliston oʻrtasidagi aloqalarda yangi sahifa ochilib, oʻzaro aloqalarimiz yuqori bosqichga koʻtarilganini alohida urgʻuladi. Ayni paytda Oʻzbekiston – Moʻgʻuliston parlamentlararo doʻstlik guruhlarining faoliyatini yanada jadallashtirish va shu yoʻnalishda tegishli hamkorlik hujjatlarini qabul qilish yuzasidan fikr almashildi.

Ishonamizki, bunday saʼy-harakatlar tez fursatda oʻzining samarasini beradi. Yaʼni yaqin istiqbolda parlamentlararo muloqotimiz oʻzining yuqori bosqichiga koʻtariladi.

Umuman, Moʻgʻuliston Prezidentining ilk tashrifi muhim voqealarga boyligi, xususan, mamlakatlarimiz istiqboliga yoʻnaltirilgan bitimlarga erishilgani bilan tarixiy ahamiyat kasb etdi. Ushbu bitim va kelishuvlarda koʻzda tutilgan vazifalar ijrosi mutasaddilar bilan bir qatorda biz, xalq vakillaridan ham katta masʼuliyat talab qiladi.

Odiljon IMINOV,
Oliy Majlis Senatining
Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash
masalalari qoʻmitasi raisi.

KIBERXAVFSIZLIK:

Tahdidlarning oldini olishda yangi tartib

Oxirgi bir necha oʻn yilliklarda insoniyat koʻplab sohalarda, jumladan, axborot texnologiyalari yoʻnalishida aqlli shoshiradigan darajadagi yutuq va natijalarga erishdi. Uning samarasini har birimiz koʻrib-bilib turibmiz. Biroq undan yomon maqsadlarda foydalanish holatlari koʻpayib borayotgani esa, albatta, tashvishlidir.



Xususan, kibertahdidlar tobora koʻpaymoqda. Tahlillarga koʻra, u jahon boʻyicha bir yilda 6 trillion dollar miqdorida zarar keltirar ekan.

Shu bois butun dunyoda mazkur tahdidga qarshi kurash olib borilayotir. Jumladan, Oʻzbekistonda ham. Aniq aytadigan boʻlsak, yurtimizda bank kartalaridan pul mablagʻlari noqonuniy yechilishining oldini olish va toʻlov tizimlari kiberxavfsizligini taʼminlash boʻyicha bir qator taʼsir choralarini koʻrilayotir. Ammo shunga qaramay, fuqarolarning bank kartalaridan turli firibgarlik yoʻllari bilan mablagʻ oʻzlashtirish holatlari tez-tez uchrab turibdi.

Oliy Majlis Senatining ellik uchinchi yalpi majlisida koʻrib chiqilgan “Kiberxavfsizlikni taʼminlash sohasidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonun shu kabi holatlarni bartaraf etishga yoʻnaltirilganligi

bilan alohida eʼtiborga molik.

Qonun bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeks va 8 ta qonunga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda.

Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga koʻra, kompyuter tizimidan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun qoʻllangan jarimalarda “oʻta muhim axborot” tushunchasida muhimlik darajasini belgilashda aniq mezon mavjud boʻlmagani bois “konfidensial axborot” tushunchasi bilan almashtirilmoqda.

“Markaziy bank toʻgʻrisida”gi Qonunga kiritilayotgan yangilikka koʻra Markaziy bankning kredit tashkilotlari va toʻlov tashkilotlari hamda toʻlov tizimlari operatorlari, valyuta birjalari va kredit byurolari faoliyatida kiberxavfsizlikni taʼminlashga oid vakolati kengaytirilmoqda.

Ular quyidagilardan iborat:
mikromoliya tashkiloti, lombard va ipotekani qayta molialashtirish tashkilotlari, shuningdek, banklar, toʻlov tashkilotlari, toʻlov tizimlari

operatorlari, valyuta birjalari hamda kredit byurolarining faoliyatida axborot xavfsizligiga va kiberxavfsizlikka tahdidni aniqlash hamda ularning oldini olish boʻyicha choralar koʻradi;

axborot xavfsizligiga va kiberxavfsizlikka tahdidni aniqlash hamda ularning oldini olish boʻyicha yillik chora-tadbirlar rejasini ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Qonun bilan “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonunga ayrim qoʻshimchalar kiritilayotgan boʻlib, unda bank, banklar guruhi ichki nazoratiga hamda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir Markaziy bank talablari qatoriga kiberxavfsizlikni taʼminlash talabi ham qoʻshilayotir. Yaʼni bu kabi xatti-harakatlar qoʻpol qoidabuzarlik deb baholalanmoqda.

Qolaversa, “Avto-matlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Qonunga ham oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilib, unda axborot tizimlari va resurslari axborot xavfsizligini, kiberxavfsizligini taʼminlash va bank sirini muhofazalash talablari kiritilmoqda.

Qonun bilan “Toʻlovlar va toʻlov tizimlari toʻgʻrisida”gi Qonunga toʻlov xizmatlarini koʻrsatishda toʻlov tizimi uzluksiz ishlashiga taʼsir koʻrsatuvchi qoidabuzarliklarni,

shuningdek, axborot xavfsizligini va kiberxavfsizlikni taʼminlashga taʼsir koʻrsatuvchi qoidabuzarliklarni Markaziy bankning birinchi koʻrsatmasi yuborilgan kundan eʼtiboran uch oy mobaynida bartaraf etishi lozimligi toʻgʻrisida oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilayotganligini ham aytish joiz.

Bundan tashqari, “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonunga kiritilayotgan oʻzgartirishlarga koʻra, nobank kredit tashkilotlari tomonidan axborot xavfsizligini va kiberxavfsizlikni taʼminlashga doir talablar bajarilmagan taqdirda Markaziy bank ularga nisbatan choralar va sanksiyalar qoʻllashi mumkin boʻladi.

Koʻrinib turibdiki, soʻz yuritilayotgan qonun bugungi kunimiz uchun juda muhim. Zero, u kredit va nobank kredit tashkilotlari faoliyatida, elektron hukumat tizimida axborot xavfsizligini kuchaytirishga va kiberxavfsizlikni taʼminlashga hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Kobul TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining
Budjet va iqtisodiy ishlohtlar
masalalari qoʻmitasi raisi
oʻrinbosari.

Maʼlumki, shu yilning may oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qoʻmitasi tomonidan eʼkologi-energiya resurslarini ishlab chikarish (kazib chikarish), qayta ishlash, uzatish (tashish), taqsimlash va isteʼmol qilish, ularning saqlanishini taʼminlash sohasida davlat nazoratini amalga oshirish borasidagi ishlar holati Qashqadaryo viloyati misolida nazorat-tahlil tartibida oʻrganilgan edi.



Soha rivojiga oid takliflar ilgari surildi
Maʼlumki, shu yilning may oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qoʻmitasi tomonidan yoʻqilgʻi-energiya resurslarini ishlab chikarish (qazib chikarish), qayta ishlash, uzatish (tashish),

taqsimlash va isteʼmol qilish, ularning saqlanishini taʼminlash sohasida davlat nazoratini amalga oshirish borasidagi ishlar holati Qashqadaryo viloyati misolida nazorat-tahlil tartibida oʻrganilgan edi. Kecha mazkur oʻrganish yakunlaridan kelib chiqib, Sanoat, qurilish va savdo

masalalari qoʻmitasining kengaytirilgan yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Unda Energetika vazirligi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiya sinov ushbu sohada olib borilayotgan ishlar holati toʻgʻrisidagi axboroti eshitildi.

Unda keltirilishicha, inspeksiya tomonidan oʻtkazilgan nazorat tadbirlari davomida ayrim isteʼmolchilarning 1,46 trln. soʻmlik energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlari aniqlangan. Energetika tizimi korxonalari va tadbirkorlik subyektlarida amaldagi qoidalariga asosan 226-marta tekshirish va oʻrganish oʻtkazilgan. Mazkur tekshiruvlarda 14 372 ta qoidabuzarlik aniqlanib, quvvati 3550,4 kVt boʻlgan 36 ta elektr qurilma tarmoqdan ajratilgan. 2 ming 440 nafar masʼul xodimga nisbatan intizomiy jazo choralarini qoʻllanilib, 6 ta brigada ishi toʻxtatilgan. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish boʻyicha tegishli tashkilotlarga

966 ta yozma koʻrsatma berilib, 685 tasning bajarilishi taʼminlangan.

Qayd etilganidek, energiya samaradorligi boʻyicha energoauditorlar tomonidan 147 ta korxonada tekshiruvlar oʻtkazilgan. Shu bilan birga, respublika boʻyicha 9 503 ta mahalla kesimida 3,9 mlrd. kVt/soat elektr energiya hamda 2,3 mlrd. kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish boʻyicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilib, ularning bajarilishi nazoratga olingan.

Tizim korxonalari tasarrufdagi obyektlarda, xususan, ijtimoiy soha muassasalari hamda koʻp qavatli uylarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik boʻyicha oʻrganishlar oʻtkazilgan. Ushbu jarayonda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan mutasaddi tashkilotlarga koʻrsatmalar berilgan.

Munozaralar chogʻida hududlarda ayrim yoqilgʻi-energetika tashkilotlari tomonidan amaldagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilmayotgani holati deputatlarning jiddiy eʼtiroziga

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISH — eng muhim vazifamizga aylanishi zarur

Mamlakatimizda aholi orasida sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish, ularning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga qarshi immunitetini shakllantirish, shuningdek, inson salomatligini taʼminlashga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo soʻnggi yillarda yangi turdagi sintetik giyohvandlik vositalari va kuchli taʼsir quvvatli moddalar paydo boʻlib, ular inson omilisiz ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda aholi, ayniqsa, yoshlar orasida tarqatilyotgani masʼul davlat tuzilmalarining bu boradagi faoliyatini “Barcha saʼy-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor gʻoya asosida sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish zaruratini taqozo etayotir.

Ogohlik

Aytish joizki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 6-maydagi “Oʻzbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qoʻyish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy taʼsirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni bu borada muhim huquqiy asos boʻldi.

Ilgʻor xorijiy tajriba, shu jumladan, BMT ekspertlarining xulosa va tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan Oʻzbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish boʻyicha 2024 – 2028-yillarga moʻljallangan milliy strategiya tasdiqlandi.

Milliy strategiya doirasida aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarda “giyohvandlikka qarshi immunitet”ni, oʻquvchi va talabalar orasida kuchli taʼsir etuvchi dorilarni isteʼmol qilishga murosasiz munosabatni shakllantirish, taʼlim muassasalarida psixofazol moddalar tarqalishining oldini olishga qaratilgan yangi taʼsirchan targʻibot-tashviqot va tarbiyaviy-profilaktik mexanizmlarni joriy etish maqsadlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi. Davlat va xususiy tibbiyot muassasalari hamda dorixonalarning giyohvandlik vositalaridan tibbiyotda foydalanish amaliyotini nazorat qilish, shuningdek, farmatsevtika korxonalari, giyohvandlik vositalarining ulgurji va

chakana savdosi bilan shugʻullanuvchi subyektlar masʼuliyatini oshirishning taʼsirchan mexanizmlarini yaratish ham ustuvor vazifalardandir.

Maʼlumki, bugungi kunda voyaga yetmaganlarni jalb qilgan holda hamda telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet jahon axborot tarmogʻidan foydalanish orqali giyohvandlik vositalarining, ular analoglarining va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi ortib borayotganligi munosabati bilan ushbu huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini qayta koʻrib chiqish talab etilayotgan edi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan yaqinda qabul qilingan va kuni kecha Senatda maʼqullangan tegishli qonun bilan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni telekommunikatsiya tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmogʻidan foydalanib qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik, ushbu jinoyatlarni voyaga yetmaganlarni jalb qilgan holda sodir etganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirilmoqda. Shuningdek, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar, kuchli taʼsir

qiluvchi va zaharli moddalarni oʻtkazish maqsadini koʻzlamay qonunga xilof ravishda olish, saqlash, tashish yoki joʻnatish uchun maʼmuriy va jinoyiy javobgarlik belgilandi.

Shubhasiz, ushbu qonun giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, kuchli taʼsir qiluvchi va zaharli moddalarning targʻiboti yoki reklamasi yoxud noqonuniy muomalasining barvaqt oldini olishga xizmat qiladi.

Yurtimizda ushbu masalaga bu darajada katta eʼtibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki giyohvandlik nafaqat pul ilat bilan shugʻullanuvchilarga, balki butun jamiyatga tahdid soladi. Shuning uchun ham har yili 26-iyun – Xalqaro narkotik moddalarni suiteʼmol qilish va ularning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash kuni, deb eʼlon qilingan.

Ushbu sana munosabati bilan yurtimizda doimiy ravishda tadbirlar oʻtkazilib kelinadi. Jumladan, oliy oʻquv yurtlarida, litsey, kollej, maktab va boshqa oʻquv muassasalarida hamkorlikda tadbirlar uyushtirilib, yoshlar oʻrtasida tushuntirish ishlari mutamamz olib borilmoqda. Shuningdek, mahallalarda, taʼlim va sogʻliqni saqlash muassasalarida, barcha mehnat jamoasida giyohvandlikning

inson sogʻligʻiga zarari va uning ayanchli oqibatlari haqida maʼnaviy-maʼrifiy targʻibot ishlari yoʻlga qoʻyilgan.

BMT maʼlumotiga koʻra, dunyoda 27 milliondan ortiq odamlar giyohvandlik dardiga yoʻliqqan. Ularning aksariyat qismini 30 yoshgacha boʻlganlar tashkil etadi. Oqibatda har yili 200 mingdan ziyod kishilar hayotdan erta koʻz yumayotgani taassuflidir.

Keyingi paytlarda giyohvandlik va psixotrop moddalarning inson salomatligiga ziyoni haqida koʻp gapirilayotganiga qaramay, afsuski, ayrim yoshlar bu ilat domiga bilib-bilmay tushib qolayotgani achinarli holdir.

Xoʻsh, giyohvandlikka batamom barham berish, bu illatning oldini olish uchun nima qilmoq kerak?

Buning uchun, birinchi navbatda, aholi orasida sogʻlom turmush tarzini omallashtirish, narkotik vositalarning isteʼmoliga salbiy munosabatni shakllantirish lozim.

Ikkinchidan, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, organizmda unga qarshi immunitet hosil qilinishi darkor. Demak, giyohvandlikka qarshi kurashish, yoshlarni bu balodan asrash

uchun targʻibot-tashviqot ishlari koʻlamlari yanada kengaytirish lozim.

Uchinchidan, ota-onalar farzandlarining ichki dunyosidan qonxoxar boʻlib borishi, xususan, ular olayotgan axborotni – koʻrayotgan film va kliplarini imkon qadar nazorat qilib turishlari maqsadga muvofiq boʻladi.

Sirasini aytganda, giyohvandlikka qaramlik aholining mehnatga qobiliyatli qismini zararlashi, ularning ijtimoiy himoyaga muhtojligi va unga ketadigan sarf-xarajatlarning kattaligi, mamlakatning demografik holatiga taʼsir qilishi, aholining sogʻlom, bexavotir turmush kechirishiga xavf tugʻdirishi orqali milliy taraqqiyot va barqarorlikka ham salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Shunday ekan, ushbu illatga qarshi kurashish nafaqat ota-ona yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki shu yurtda yashovchi har bir fuqaroning burchiga aylanmogiʻ kerak. Zero, yoshlar – ertamiz egalari, kelajak bunyodkorlaridir. Ularning ertangi taqdiriga, sogʻligʻiga befarq boʻlishga aslo haqqimiz yoʻq.

Qizilgul QOSIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati.

O'zbekiston korrupsiyadan xoli jamiyat qurish tarafdori ekanini yana bir bor tasdiqladi

O'zbekiston Prezidenti tomonidan shu yil 21-iyun kuni imzolangan "Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror xalqaro ekspertlar hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otmoqda.

Dunyo nigohi

Aleksandr KLISHIN,
BMTning Qonun ustuvorligi va xavfsizlik institutlari boshqarmasi maslahatchisi:

– Ushbu tashabbus nafaqat O'zbekiston,

balki xalqaro maydonda korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim bosqichidir. "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini doimiy ravishda oshirish tizimini joriy etishga qaratilgan qat'iy qarorining samarasidir.

Tashabbus iqtisodiyotning barcha tarmog'ida halollik, oshkoralik va hisobdorlikni rag'batlantirish bo'yicha global sa'y-harakatlarga to'liq mos keladi. O'zbekiston korrupsiyadan xoli jamiyat qurish tarafdori ekanini yana bir bor tasdiqladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi mamlakatlar uchun namuna sifatida xizmat qiladi.

Anas KARMAN,
BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili vazifasini bajaruvchi:

– Prezident Shavkat Mirziyoyevning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalarini hal qilish uchun Virtual akademiya tashkil etishga oid yangi qarorini O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi

kurashish, davlat sektorida antikorrupsiyon ekotizimni mustahkamlash va halollikni kuchaytirishda juda katta ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

Menimcha, ushbu akademiyaning noyobligi, bu platforma orqali nafaqat davlat xizmatchilari va kompayens mutaxassislari o'zlar uchun zarur bo'lgan treninglardan foydalanishi mumkinligi, balki oddiy fuqarolar uchun ham kirish imkoniyati mavjudligidadir. BMT Taraqqiyot dasturi jahon tajribasidan foydalanib, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan yelkama-yelka turib, hukumatning ushbu sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi hamda platformani zarur ma'lumotlar va trening materiallari bilan ta'minlaydi.

Antti KARTTUNEN,
YEXHTning O'zbekistondagi loyihalari koordinatori:

– O'zbekistonning Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasini ishga tushirish tashabbusi bugungi kunning va vaqtning talabidir. Qolaversa, u sohaga oid ko'plab savollarga javob topishga katta yordam beradi.

Mazkur qaror, shuningdek, yaqinda davlat rahbari tomonidan imzolangan O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun mamlakatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlarning yana bir muhim bosqichi, deb o'ylayman.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda qonunchilikni takomillashtirishda, Virtual akademiya orqali davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining

malakasini oshirishga ko'maklashishni davom ettirishga, umuman, O'zbekistonning sohadagi sa'y-harakatlarini keng ko'lamda qo'llab-quvvatlashga tayyormiz.

Tuya BRAKS,
Xelsinki universiteti qoshidagi Qonun ustuvorligi markazi direktori:

– O'zbekistonda tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi haqida fikr bildirish men uchun yoqimlidir.

Bir necha yildan buyon O'zbekistonning Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda ishlayman. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish, ushbu sohada qonunchilikni takomillashtirish, aholi xabardorligini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar menda katta taassurot qoldirdi. Yangi Virtual akademiya xabardorlikni oshirish, turli maqsadli guruhlar uchun maxsus kurslar ishlab chiqish, shuningdek, yoshlarni ushbu sohani o'rganishga jalb qilish uchun yaxshi imkoniyatdir. Pirovardida biz O'zbekistonning kelajagi haqida gapirypmiz. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish va aholi xabardorligini kuchaytirish, qonun ustuvorligi tamoyillariga rioya etish yurtlingizda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kventir RID,
Oksford universiteti professori,
"Mintaqaviy muloqot" xalqaro nodavlat tashkiloti eksperti (Buyuk Britaniya):

– O'zbekiston Prezidentining yangi akademiya tashkil etish to'g'risidagi qaroridan juda xursand bo'ldim. Menimcha, bu tabiiy jarayon. Korrupsiyaga qarshi kurashishda ikkita o'ta muhim yo'nalish bor. Birinchisi, aholining xabardorligini oshirish, ikkinchisi ta'lim, ya'ni o'qitishdir. Ularisiz korrupsiyaga qarshi to'g'ri tizimni yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Yangi akademiya esa bu borada juda foydali bo'ladi.

Ushbu sohada xabardorlikni oshirishning yo'li tadqiqot olib borish, izlanish hisoblanadi. Bu o'ta muhim. Tadqiqotsiz bizda hech qanday dalil yo'q, daillarsiz bizda yaxshi siyosat bo'lmaydi. Shunday ekan, akademiya faoliyatini yo'lga qo'yishga kirishgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Huquqni muhofaza qilish akademiyasi ilg'or xalqaro tajribalar asosida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plashda, haqiqatan ham, muhim ishlarni amalga oshirishi mumkin, deb o'ylayman.

Nuripa MUKANOVA,
Qirg'iziston Prezidenti huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishbilarmonlar kengashi bosh kotibi:

– O'zbekiston xalqi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini Virtual akademiyaning ochilishi bilan tabriklayman. Ushbu akademiyaning ochilishi nafaqat mamlakatingiz, balki Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Bu korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'ta muhim chora va korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bevosita shug'ullanuvchi barcha shaxslarning, shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish sohasida o'z salohiyati, bilim va ko'nikmalarini oshirish istagida bo'lgan shaxslarning salohiyatini yuksaltirish uchun muhim platformadir. Virtual akademiya, shuningdek, o'qib, keyin davlat xizmatiga kirayotgan yoshlarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ko'nikmalarini oshirish imkoniyatini beradi.

"Dunyo" AA.

Sanoat

Neftni qayta ishlash minizavodi qurildi

O'zbekiston tumanining "Kichik Tagob" sanoat zonasida zamonaviy mezonlar asosida kichik quvvatda ishlovchi neftni qayta ishlash zavodi barpo etildi. Zavodni to'liq quvvatda ishga tushirish maqsadida 500 ming AQSH dollari miqdorida xorijiy kredit jalb qilinib, hozirda modernizatsiya ishlari olib borilmoqda.

– Yangi korxona tashkil etilishi uchun dastlabki bosqichda loyiha tashabbuskorlarining o'z mablag'i va bank kreditlari hisobidan qariyb 6 milliard so'm mablag' yo'naltirildi, – deydi O'zbekiston tumani hokimi Sherzodbek Yuldashev. – Xususan, Xitoydan 5 milliard 250 million so'mlik uskuna va dastgohlar olib kelib o'rnatildi. Shu tariqa zavodni dastlabki sinov tariqasida ishlatish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Modernizatsiya loyihasi doirasida har birining hajmi 100 metr kub bo'lgan 2 ta saqlagich (rezervuar) qurib bitkazilgan bo'lsa, bugungi kunda umumiy hajmi 4 ming metr kub bo'lgan 2 ta saqlagichni barpo etishga kirishildi. O'z navbatida, korxonada



energiya tejovchi uskunalarini o'rnatish, avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish ishlari ham bajarilmoqda.

Modernizatsiya jarayoni bajarilgach, korxonaning ishlab chiqarish quvvati ikki barobar oshadi. Kuniga 100 tonna neft qayta ishlashni natijasida benzin, dizel yonilg'isi va mazut mahsulotlari ishlab chiqariladi, 30 dan ziyod ish o'rinlari yaratiladi.

Botir MADIYOROV
("Xalq so'zi").

Infratuzilma

QORADARYO USTIDA 330 METRLIK KO'PRIK BARPO ETILMOQDA

Samarqand shahrini yangi qurilayotgan Shirin shaharchasi bilan bog'laydigan Qoradaryo ustida ko'priklari davom etmoqda. Jami uzunligi 330 metрни tashkil etuvchi mazkur obyektga ayni chog'da o'nlab maxsus texnikalarda ish olib borilayotir.



– Bugungi kunda 298 ta beton ustun 35 metr chuqurlikda o'rnatib bo'ldi, – deydi qurilish ishlarini olib boruvchi "1-Most-o'tryad" MCHJ uxastka boshlig'i Yusuf Mamarahimov. – Daryoning o'ng qirg'og'ida tuproq tashish, burg'ilash va beton quyish ishlari olib borilmoqda. 120 nafar quruvchi-muhandis va ishchi mehnat qilayotgan ko'priklari 2022-yilda boshlangan bo'lib, ayni paytgacha 25 foiz ishlar bajarildi.

Aytish joizki, mazkur ulkan inshoot daryodan 13,5 metr, "M-39" avtomobil yo'lining

ustidan 12 metr balandlikda o'tib, Samarqand xalqaro aeroportiga olib boruvchi yo'lga tutashadi.

– Loyiha qiymati 260 milliard so'mni tashkil etuvchi ushbu ko'priklarda 4 ta asosiy yo'l quriladi, – deydi "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" davlat muassasasi direktori o'rinbosari Akbar Mirzaev. – 2026-yil yakunigacha foydalanishga topshirish ko'zda tutilgan ko'priklarning qurilish ishlariga hozirgacha salkam 35 milliard so'm sarflandi.

Abdulaziz YO'LDOSHEV
("Xalq so'zi").

Kashfiyot

“AQLLI” PROTEZ QO‘L YARATILDI

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Qarshi filiali dotsenti, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori Qudratjon Zohirov fikr kuchi bilan boshqarish mumkin bo'lgan va sun'iy intellekt asosida harakatlanadigan qo'l protezini yaratdi.

"Aqli" protezning ko'rinishi oddiydaridan uncha farq qilmaydi. Faqat unga maxsus dasturiy ta'minotga ega sensor hamda sensor orqali berilgan buyruqlarni amalga oshiradigan mexanizm o'rnatilgan. Protez qo'lning nuqsonli qismiga, sensor esa sog' qismiga joylashtiriladi. Sensor inson miyasidagi fikrni mushaklar orqali kelayotgan elektromiografiya signali orqali o'qib, apparatga buyruq yuboradi. Natijada mexanizm harakatga tushadi. Deylik, siz stol ustidagi ruchkani olib, daftarga yozmoqchisiz. Shu haqda o'ylashingiz bilan ruchkaga qo'l uzatasiz. Protezdagi panjalar darhol harakatga kelib, ruchkani tutadi va yozishni boshlaydi.

– Bunday texnologiya rivojlangan davlatlarda mavjud, – deydi Qudratjon Zohirov. – Biroq ularning dasturiy ta'minoti, ishlash mexanizmlari va funksiyadorligi bir-biridan farq qiladi. Ushbu turdagi qurilmalarni mahalliyashtirish orqali ancha mablag' tejaliishi mumkin. Ayni paytda bu texnologiyani yanada mukammallashtirish ustida ish olib boryapmiz.

Yosh olimning aytishicha, bunday protezlarni yurtimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali ularni bir necha barobar arzonlashtirish hamda nogironligi bo'lgan odamlar hayotini ancha osonlashtirish mumkin.

Bundan tashqari, Qudratjon Zohirov jamoasi bilan birgalikda sport kurashida sportchilarning harakatlarini masofaviy tahlil va nazorat qilib borish imkonini beradigan texnologiya yaratish ustida ham ish olib bormoqda. Mazkur loyihada kurash sporti bilan shug'ullanuvchi sportchilarning turli usullar va texnik mashqlarini bajarishi davomidagi harakatlarini tahlil qiluvchi dasturiy vosita yaratiladi. U sun'iy intellekt asosida ishlaydi, ya'ni sportchining jismoniy holati qay daraja ekanini bashorat qiladi.

E'tiborli tomoni, tadqiqotchi mazkur loyiha uchun 500 million so'm miqdoridagi davlat dasturlari doirasidagi grantni ham qo'lga kiritibdi.

– Ushbu moliyaviy ko'mak ishimiz uchun zarur texnologiyalarni xarid qilish va izlanishlarni izchil davom ettirishimiz uchun juda katta madad bo'ldi, – deydi tadqiqotchi. – Ayni paytda bu loyihaning ilmiy yechimlari ustidagi ishlarimiz yakunlandi. Endi dasturiy vosita hamda zarur mexanizmlarni tayyorlashga kirishamiz. Yil yakuniga qadar ushbu texnologiyani yaratish ishlarini ham to'liq yakunlaymiz.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

Mavlaviy Namangoniy maqbarasi mukammal ta'mirlandi



Shu munosabat bilan tashkil etilgan marosimda Namangan viloyati hokimi Shavkat Abdurazzoqov, O'zbekiston madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, sektorlar rahbarlari, nuroniyalar va

Yangi Namangan tumanida joylashgan ushbu maqbara XVII asrning ikkinchi yarmida yashagan mashhur shoir va olim Mavlaviy Namangoniy xotirasiga bag'ishlab qurilgan. Salkam uch asr ilgari bunyod etilgan inshoot so'nggi bor bundan yarim asr muqaddam ta'mirdan chiqarilgan, keyingi paytlarda esa qarovsiz holatda edi. Rekonstruksiya va mukammal ta'mirdan so'ng ko'rkam tus olgan ushbu majmua ziyoratchilar uchun o'z eshigini ochdi.

Obodlik

keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Tadbirida Mavlaviy Namangoniy nomi bilan mashhur shoir va olim Mullaxo'ja Namangoniyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida so'z bordi. Yakunda namanganlik yetti ulamo, jumladan, Mavlaviy Namangoniy qoldirgan madaniy merosga bag'ishlab tojikistonlik olim Sodirxon Umarov muallifligida yangi nashrdan chiqarilgan

"Xaft buzruqi Namangon" kitobi taqdim etildi.

Ma'lumot o'rinda aytish lozimki, Namangan viloyatida 300 ga yaqin madaniy meros obyektlari ro'yxatga olingan. Bugungi kunda turizmni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ushbu maskan va ziyoratgohlarni ta'mirlash ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Qudratilla NAJMIDDINOV
("Xalq so'zi").

Bungodkorlik ruhi bilan gashayotgan odamlar

To'rttala fasl ham husnu tarovati bilan keladigan o'lkamizda avji yoz mavsumi. Bir qaraganda bu yilgi javzoning kirishi burungisidek: jazirama kunlar hovuri, uning taftini bosuvchi oqshomgi epkinlar, pishiqchilik...

Taassurot

Ha, bizning yoz ayni pishiqchilik pallas.

Ta'tilga chiqqan bolalarni olib, qishloqqa yo'l soldik. Bizning ota makon Samarqandning janubi-sharqiy tomonida, Zarafshon daryosining asosiy irmoqlaridan biri hisoblanadigan uzoq tarixga ega Darg'o'm kanaliga yaqin yerlarda joylashgan Ravot qishlog'idir. Qishloq oqsoqollarining aytishicha, Ravot va unga yondosh mahallalar – Nurafshon, Ukrach, Nayman, Uzunqishloq kabi bir nechta qishloqlar o'rinda Amir Temur davrida xushhavo Davlatobod bog'i barpo etilgan bo'lib, hozir ham "Davlatobod" atamasi iste'molda keng qo'llaniladi.

Qishloq har doimgidek sokin va sarishta. Odamlar o'z kundalik yumushlari bilan band. E'tibor berilsa, ularning qo'li qo'lga tegmaydi. Ayni paytda o'sha azaliy – o'zaro mehr-oqibat, mehmondo'stlik, xayr-saxovat rishtalari mustahkam. Eng muhimi, hamqishloqlar kayfiyati a'lo, ro'zg'ori but, bunyodkorlik ruhi bilan yashamoqda. Ular ilgirigidek kunni "bo'laveradi" qabilida o'tkazmaydi,

dunyodan xabardor, zamon bilan hamnafas. Birovi uy qurgan, tom yopgan, yana boshqasi to'y taraddudida, birovii ilm istab shaharga borgan, dunyo kezgan va hokazo.

Aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlari ko'paygan, yangi salomatlik muassasasi va o'quv markazi ish boshlagan, qator do'konlarning barida savdo-sotiq bo'lib turibdi. Gilos, olcha, o'rik g'arq pishgan. Mazasi tilni yoradi. "Rub'i muskunda Samarqandcha latif shahar kamroqdur", deya maqta'lvuchi "Boburnoma"da Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqandning mevalarini tavsiflar ekan: "Uzumi va qovuni va olmasi va anori, balki jam'i mevasi xo'b bo'lur", deb bayon qiladi. Darhaqiqat, bozorlarni aylansangiz, mahalliy savdogarlardan tashqari boshqa viloyatlardan kelib mavsumiy mevalarni ulgurji xarid qilayotganlar ko'pligiga guvoh bo'lasiz.

Quti-quti giloslarni mashina yuxkonasiga avaylabgina joylayotgan savdogarni suhbatga tortdik:

– Rossiyaga eksportga chiqaramiz. Hozirga qadar gilos ortilgan uchta

katta yuk mashinasi jo'nab ketdi.

Har mavsumda o'zim 5 – 7 tonna meva tayyorlab beraman. Shukr, bu yil ham hosil mo'l. Barakasini bersin, – deydi Jahongir Rahmonov. – Sal avval ijtimoiy tarmoqlarda "Bozorlar bo'm-bo'sh, xaridor yo'q", degan bir video tarqaldi. Shu videolarni tayyorlab tarqatganlarni o'zimizning Chorshanba bozoriga taklif qilish kerak, deb o'ylab qolaman. O'z nomi bilan faqatgina haftaning chorshanba va shanba kunlari ishlovchi bu bozor shu qadar gavjumki, igna tashlasa, yerga tushmaydi. Axir, shu emmasi farovonlik, to'kinlik ifodasi?! Bu bozor markaziy bo'lmasa ham, har ish kunida uzoq-yaqindan keluvchilarga xizmat ko'rsatadi. Mahalliy aholi tomoniga yetishtirgan kartoshkamni, piyoz, sabzimi, ko'katni ro'zg'oridan organini shu bozorga olib chiqadi. Narx-navo ham shunga yarasha: cho'ntakbop. Elning bozorida baraka bor, fayz bor. "Mehnat bilan yer ko'karar, duo bilan – ei", deb bejiz aytishmaydi.

Xabaringiz bor, ayni paytda Madinai muna'vvara, Makkai mukarrama shaharlarida haj amallarini ado etganlar yurtga qaytishmoqda. Qishloqdoshimiz O'g'iloy Yo'ldosheva ham ular orasida.

O'g'iloy onaning oila a'zolari, yaqinlarga yuborgan iliq fikrlari, ilk taassurotlari bizni ham to'qintlantirdi.

– Samolyotga o'tirganimizdanoq bu yilgi mavsumga uyushqonlik bilan tayyorgarlik ko'rilganining guvohi bo'ldik, – deydi u. – Taomnomamizda oqsilga boy, foydali mahsulotlar kiritilgan. Saudiya Arabistoniga yetib borganimizda esa bizni gullar bilan kutib olishdi. Gid-tarjimon va haydovchilarning sermulozamat ekani, yoshi ulug'larga tavoze bilan xizmat ko'rsatishi bizni xursand qildi. Ayniqsa, Prezidentimizning musulmonlar idorasi raisi, muftiy shayx Nuriddin Xoliqnazar bilan telefon orqali muloqot qilib, bizning ahvolumizni, kayfiyatimiz, salomatligimizni so'rab turgani biz, ziyoratchilarning kayfiyatini, ruhini yanada ko'tarmoqda. Davlatimiz rahbarining bunday jonkuyar ekani, har bir vaziyatdan xabardorligi bu yerdagi boshqa mamlakatlardan kelgan mehmonlarning bizga havas bilan qarashiga sabab bo'ldi. O'z navbatida, xalqimiz farovonligi, yurtimiz tinchligi uchun duolar qilyapmiz.

Chindan ham, bugungi qishloq odamlari – yangicha fikrlovchi, chinakam ziyoli, mirishkor dehqon, savdogar tadbirkorlar. Bu yerning yoshlari ham taraqqiyotning bosh mezonii ilm-ma'rifat ekanini teran anglagan, shu yo'lda ildam ketayotgan kelajak bunyodkorlaridir. Boqimandalik kayfiyatida, o'zida bor imkonni ishga solib, hayotini obod qilish o'rninga bironing qo'lga qarab yashayotganlar ham atrofidagi odamlarning turmushiga bir razm solsa, o'rnak olsa, o'tgan kunidan ertangi kuni chiroyli bo'lishi uchun intilsa, ajabmas.

...Qishloqdoshimiz Davron akaning ikkala farzandi ham Prezident maktabi o'quvchilari. Ular ham ta'tilda uyg'a qaytishgan. Katta o'g'li axborot texnologiyalari sohasiga qiziqqan desa, kichigi ekolog bo'laman, suvni tejovchi ixtirolar qilaman, deydi. Bir emas, ikkita farzandining bunday nufuzli maktabga kirish imtihonlaridan yuqori natija bilan o'tgani, buning uchun nimalar qilish kerakligi ko'pchilikka ziqiq.

– Buning kishi bilmas siri yo'q. Qayerda zo'r o'qituvchi daragini ehsitsam, bo'ldi. Yozni yoz, qishni qish demay, masofa chamalamay, olis bo'lsa ham, farzandlarimni olib bordim. Ulardan bir masala yechishni o'rgansa ham katta gap deb bildim. Tinimsiz qilingan mehnat samarasini bermay qolmaydi. Ayniqsa, bilim olish uchun sarflangan xarj kun kelib, o'zining natijasini ko'rsatadi, – deydi Davron Tojiyev.

Nargiza YUNUSOVA
("Xalq so'zi").

Shu yil 26-sentabr kuni Londondagi Britaniya muzeyida "Ipak yo'llari" ko'rgazmasi o'z ishini boshlaydi. Unda O'zbekistonning muzey kolleksiyalariga mansub 14 ta eksponati namoyish etiladi.

ФИДОКОРОНА МЕҲНАТГА БЕРИЛГАН МУНОСИБ БАҲО

1

Albatta, mamlakatimizda ochiqlik, oshkoralik, davlat organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlash, so'z va matbuot erkinligiga shart-sharoit yaratish, ommaviy axborot vositalarini tom ma'nodan "to'rtinchi hokimiyat"ga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlardan ezgu muddaolar ko'zlangan. Biz mana shu yo'ldan sobitqadamlik bilan oldinga intilibgina rivojlangan demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini qura olamiz.

Tabrikda ta'kidlanganidek, bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat "to'rtinchi hokimiyat", balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda. Bu esa soha vakillari zimmasiga milliy manfaatlarimiz himoyachisi bo'lish, jon va ruh mudofaasiga ko'maklashishdek zalvarli vazifalarni qo'yadi. Ana shu murakkab, mashaqqatli, shu bilan birga, nihoyatda sharafli ish jurnalistlardan katta bilim, salohiyat, yuksak vatanparvarlik, jasorat va matonat, kasbga sadoqatni talab etadi. Shu bois mamlakatimizda ko'p qirrali professional bilim va malakaga, yuksak ma'naviy-intellektual fazilatlariga ega bo'lgan zamonaviy jurnalist kadrlar tayyorlash bundan buyon ham ustuvor vazifa bo'lib qoladi.



Xosha PAYDQEB oltin surati.

Dunyoda globalashuv jarayonlari tobora chuqurlashayotgan, axborot olish va uzatish makon hamda zamon chegaralarini tan olmayotgan hozirgi davrda mediamakoni sifatli va raqobatdosh milliy kontent bilan to'ldirish har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Jahonda kechayotgan voqea-hodisalarni milliy manfaatlarimizni hisobga olgan holda, tezkor va chuqur tahlillar asosida yoritib borish ham axborot siyosatining o'ta muhim qismidir.

Tadbirda davlatimiz rahbarining Farmoniga muvofiq, Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan taqdirlangan soha fidoyilariga orden va medallarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva topshirdi.

Tantana san'at ustalari, estrada yulduzlari va yosh ijrochilarning konsert dasturi yig'ilganlarga bayram kayfiyatini baxsh etdi.

"Xalq so'zi".

Prezidentimiz Farmoniga ko'ra hamkasbimiz – "Narodnoye slovo" gazetasi bo'lim muharriri Sergey Levchenko (suratda o'ngdan ikkinchi) ham "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.

Tahririyat jamoasi jonkuyar hamkasbimizni ushbu yuksak mukofot bilan tabriklaydi. Unga kelgusida ham ijodiy muvaffaqiyatlar hamroh bo'lishini tilaydi.

So'z aytish mas'uliyati va sharafti

Prezidentimiz rahnamoligida suratan va siyratan yangi davlat, yangi jamiyatni barpo etishdek ulug'vor maqsad yo'lida jadal islohotlar olib borilar ekan, mamlakatimizda matbuot va so'z erkinligini ta'minlashga, ommaviy axborot vositalarini chinakam muloqot maydoniga, erkin fikr minbariga aylantirishga alohida urg'u berilayotgani bejiz emas.

Binobarin, so'z erkinligini qaror toptirmay turib, insonlarning qadrgimmatini ko'tarib ham, haq-huquqlarini ta'minlab ham bo'lmaydi. Davlat organlarining ochiqligi, shaffofligi, xalq bilan muloqotga doim tayyorligi va manfaatlariga javob berishi dunyo tan olgan demokratik qadriyatlar hisoblanadi. Ana shu qadriyatlar ustuvorligiga erishishda esa ommaviy axborot vositalarining ahamiyati beqiyos.

Keyingi yillarda yangi O'zbekistonda xalq bilan muloqot tizimini yaratishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratildi. Prezidentimizning "Insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylarning eng oliy mezonidir", degan ezgu g'oyasi barcha davlat tashkilotlari va idoralari faoliyatining negiziga aylantirilmog'da. Shu bilan birga, xalqning oldida hisobdorligi, ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligi ta'minlanmog'da.

Ana shunday e'tibor va qo'llab-quvvatlov, yuksak ishonch, o'z

navbatida, mediasoha vakillari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Zotan, bugungi globalashuv davrida jahondagi ilg'or axborot agentliklari, mediakompaniyalar, mashhur nashrlar bilan tengma-teng faoliyat yuritish, milliy manfaatlariga mos va mohiyat-e'tibori bilan mamlakatimizda yuz berayotgan voqealarni qamrab oladigan axborot tarqatish, qisqacha aytganda, xalq ovozig'a aylanish, O'zbekiston nomidan so'z aytish oson emas. Buning uchun ommaviy axborot vositalari vakillari nafaqat professional bilim va malakaga, keng tafakkur va dunyoqarashga, katta hayotiy tajribaga, ayni chog'da, o'z so'zi uchun mas'uliyat hissiga, kuchli fuqarolik pozitsiyasiga, yuksak ma'naviy jasoratga ham ega bo'lishi kerak.

Ko'rinishidan oddiydek tuyuladigan jurnalistik faoliyatning o'zi ham aslida, g'oyat murakkab jarayon. Birgina matbuotni olaylik. Muxbirning muayyan voqea-hodisa haqida bir xabar tayyorlab, uni



gazeta sahifalari orqali o'quvchilarga yetkazish juda katta mehnatni, O'zbekiston nomidan so'z aytish oson emas. Buning uchun ommaviy axborot vositalari vakillari nafaqat professional bilim va malakaga, keng tafakkur va dunyoqarashga, katta hayotiy tajribaga, ayni chog'da, o'z so'zi uchun mas'uliyat hissiga, kuchli fuqarolik pozitsiyasiga, yuksak ma'naviy jasoratga ham ega bo'lishi kerak.

Ko'rinishidan oddiydek tuyuladigan jurnalistik faoliyatning o'zi ham aslida, g'oyat murakkab jarayon. Birgina matbuotni olaylik. Muxbirning muayyan voqea-hodisa haqida bir xabar tayyorlab, uni

ma'no-mazmuni ila qog'ozga tushadi. Endi matbuot ishidagi keyingi bosqich boshlanadi. Muxbir tomonidan tayyorlangan xabar bir necha muharrirlar tomonidan tahrirdan o'tkazilib, kotibiyatga beriladi. Bu yerda mediamahsulot ma'lum dizaynga solinib, suratlar bilan boyitilib, gazetaning elektron holatiga muvofiqqlashtiriladi. Barcha bosqichdan o'tgan gazetaning elektron versiyasi chop etish uchun nashriyotga yuboriladi. Matbaachilik va chop qilingan matbuot nashrlarini o'quvchilarga yetkazish ham ulkan mehnatni, qunt va sabotni talab etadi. Xullas, jarayonni sharhlayversak, gap ko'p.



Eng muhimi, ana shunday og'ir, ayni vaqtda sharaflil mehnatni qilayotgan jurnalistlar hamda matbaa tizimi vakillari bugun e'zoz va ehtirom ko'rmoqda. Ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi yildan-yilga kengayib bormoqda. Har yili 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni mamlakatimizda keng nishonlanayotgani, mazkur bayram munosabati bilan bir guruh soha jonkuyarlari Prezidentimiz Farmoniga ko'ra turli davlat mukofotlari bilan taqdirlanayotgani mehnatlar, izlanish va intilishlarning e'tirofi o'laroq soha vakillarini mamnun etib, ularni yangi marralarga ruhlantirib kelmoqda.

Vohid LUQMON,
"Madaniyat va ma'rifat" telekanali direktori:



– Keyingi yillarda "milliy adabiyot", "milliy musiqa", "milliy libos" kabi atamalar safi yana bittaga ko'paydi, ya'ni odamlar orasida "milliy jurnalistika" degan tushuncha ham faol ishlatila boshlandi. Ko'sh, bu atama zamirida qanday ma'no mujassam?

Fikrimcha, milliy jurnalistika millatimizning o'zligini ko'rsatishi kerak bo'lgan soha hisoblanadi. U bugun yuksalish tomon dadil odimlamoqda, bunda har birimizning ulushimiz bor, albatta. Ammo bu yetarli emas, qilishimiz kerak bo'lgan ishlar hali ko'p, yelkamizda ulkan mas'uliyat turganini unutmasligimiz dardor.

Yurtboshimizning o'zi bizga barcha sharoitni yaratib berayotgani, katta-kichik yig'ilishlarda alohida kuyunchaklik bilan gapirayotgani ortida ham ulkan ishonch yotibdi. Masalan, davlatimiz rahbari o'tgan yilgi bayram munosabati bilan soha xodimlariga yo'llagan tabrigida "Davlatimiz va jamiyatimiz ommaviy axborot vositalari xodimlarining ish va turmush sharoitlarini yaxshilash, ularning mashaqqatli va mas'uliyatli mehnatini rag'batlantirish, sohaning moddiy-texnik va kadrlar salohiyatini mustahkamlash uchun zarur yordam ko'rsatishga tayyor", deya ta'kidlagani hamamizni juda quvontirgan, yangi marralar sari ilhomlantirgandi.

Jurnalistika – juda mas'uliyatli soha. So'z aytishning zalvari og'ir. Taassufki, bugun ba'zi nashrlar, ijtimoiy tarmoqlar biror yangilikni hammadan avval ommaga e'tiborga havola qilish ilinjiga kimo'zar o'ynab, noto'g'ri yoki xato ma'lumot yetkazib qo'yayotgani ham bor gap. Pirovardida inson ongi xastalanib, kerak-nokerak ma'lumotlar uyumi bilan to'lib ketmoqda. Unutmaslik lozimki, haqiqiy jurnalistning vazifasi – odamlarga to'g'ri va xolis axborot yetkazishdir. Shukrki, yurtimizda nonini halollab yeyayotgan, xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ygan jurnalistlar talaygina.

Jurnalistlarimiz kasbiga sadoqatli, haqiqat va adolat kurashi yo'lida doim sobitqadam bo'lsa, kelgusida milliy jurnalistikamiz rivoji yangi bosqichga ko'tarilishiga ishonchim komil.

Erkinbek SERIKBAY,
jurnalist (Qozog'iston):



– Ko'plab kasblar qatori jurnalistika ham o'ta mashaqqatli va insondan ko'p mehnat talab etadigan soha. Jurnalistlar kasbiy faoliyati davomida ana shu mashaqqat va qiyinchiliklarni qay darajada yengib o'tishi esa egallagan kasbiy ko'nikma va bilimi, tajribasiga bog'liq. Bugun butun dunyo bo'ylab ana shunday jurnalistlarga talab oshmoqda. Ulardan bir vaqtning o'zida dunyodan xabardor, notiq, tarixchi, siyosatchi,

Oqshin YENISEY,
Ozarbayjon davlat axborot agentligi xodimi:



– Jurnalistika jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi, desak, yangilishmaymiz. U nafaqat axborot tarqatadi, balki uni keng omma oldida tahlil qilib, o'qimlanlarni o'ylash, mushohada yuritish va o'z fikrini ochiq ayta olishga undaydi. Jurnalistning qudrat ko'lami bugungi kunda har qachongidan ko'ra keng, chunki hozirda axborot maydoni yanada kengaygan, turli bosma nashrlar, televideniye va radio bilan birga internet portallari, saytlar ham faol ishlaymoqda.

To'g'ri, chetdan qaraganda jurnalistlar qog'o'z-qalam yoki mikrofon ko'targan oddiy odamga o'xshasa-da, aslida yelkasiga katta vazifani olgan kasb egalari. Ular mavjud muammolarga yechim izlaydi, o'z fikrini hayiqmasdan aytadi, shu orqali jamiyatni olg'a boshlaydi. Bu paytda u maqsadidan noto'g'ri yo'lga og'ishmasa, maqtolarga uchmasa, o'zini tutib olsa bas, marra uniki.

xullas, hamma kasblarni egallagan inson bo'lish talab etilmog'da.

Bundan bir necha yillar ilgari o'zbek matbuoti, uning tarixi va buguni bilan qiziqqanimda bu sohaning tamal toshini ma'rifatparvar jadidlar qo'yganiga guvoh bo'ldim. Ayniqsa, ularning "Matbuot fikrlar timochi, millat va el-yurt rivoji yo'lida xizmatchi, odamlar ongu shuurining quyoshi, har kimning vijdoniga tutilgan ko'zgu bo'lmo'gi lozim", degan fikrlari meni to'lg'inlantirdi, muhim saboq bo'ldi. Tarix kitoblarini varaqlasak, ular o'z davrida davriy bosma nashrlar tashkil etgani va aksariyati butun turkiy o'lkalarda qo'lma-qo'l o'qilganiga shohid bo'lamiz.

Bugun O'zbekistonda ommaviy

axborot vositalari, jurnalistlarga e'tibor yanada kuchaygani, ayniqsa, yosh kadrlarni tayyorlash masalasiga katta e'tibor berilayotganidan xabardorman. Masalan, Toshkentda Markaziy Osiyodagi yagona bo'lgan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etilgan va bu maskanda hozir ko'plab mutaxassislar tayyorlanmoqda. Shuningdek, qator oliygohlarda ham jurnalistika yo'nalishlari mavjudligi, yoshlarning u yerda ta'lim olishga qiziqishi ortayotgani ham quvonchli holat. Bir qancha tanishlarim ayni paytda mazkur bilim dargohlarida o'qishmoqda, ba'zilar o'qishni tugatib turli nashrlar, tele va radiokanalarda faoliyat yuritmoqda.

Men o'n besh yildan buyon, aniqrog'i, tuman gazetasidagi muxbirlikdan boshlab jurnalistika sohasida ishlab kelaman. Faoliyatim jarayonida shuni anglab yetdimki, bu sohaning o'ziga xos mushkul va quvonchli tomonlari bor. Ta'bir joiz bo'lsa, siz bittagina maqolangiz bilan xalq orasida mashhur bo'lishingiz yoki malomatga qolishingiz hech gap emas.

O'zbekistonda matbuot, hamkasblarim uchun ko'plab imkoniyatlar borligi, jurnalist do'stlarim emir-erkin ishlab, o'z so'zini ayta olishi uchun sharoitlar yaratilgani borasida ko'plab ma'lumotlarga egaman. Xususan, qardosh o'lkada soha xodimlari uchun alohida bayram joriy etilgani, u har yilning 27-iyun kuni butun mamlakat bo'ylab katta shodiyona o'laroq nishonlanishi, bu kunda ko'plab jurnalistlar sovg'a-salomlar, asosiylar, e'tibor bilan siylanishi so'zimgiz tasdiqidir.

Fursatdan foydalanib, yo'limiz bilan, maqsadlarimiz mushtarak bo'lgan do'stlarimiz kasb bayrami bilan qutlayman!

Dilshod KARIMOV,
Rahmatjon BOBOQONOV
("Xalq so'zi").

30-iyun – Yoshlar kuni

KO'ZLARDA QUVONCH,
YUZZLARDA TABASSUM

Navgiron avlod bayramni ko'tarinki
ruhdan nishonlamoqda

Mamlakatimizda 30-iyun – Yoshlar kuni sifatida keng nishonlab kelinmoqda. Ushbu bayram munosabati bilan an'anaga muvofiq, iyun oyi yurtimizda "Yoshlar oyligi" deb e'lon qilinib, mahalla – sektor – tuman – hudud – respublika darajasida yoshlar festivallari, forumlar, intellektual tanlovlar, uchrashuvlar, sport musobaqalari hamda galakonsertlar tashkil etilmog'da.

Oylik doirasidagi birinchi tadbirni mamlakatimizning barcha hududida 3-iyun kuni "Tadbirkorlik va kasb-hunar haftaligi" boshlab berdi. So'ngra 12 – 17-iyun kunlari "Ilm-fan va innovatsiyalar haftaligi", 19 – 24-iyun sanalarida esa "Ta'lim va kitobxonlik haftaligi" bo'lib o'tdi. Ertaga "Madaniyat, san'at va ijod haftaligi" start oladi.

Qayd etish joizki, keyingi yillarda mahalladagi yoshlar bilan ishlash tizimi yangi bosqichga ko'tarildi. Bu yil mahalla yoshlari o'rtasida "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida voleybol, stritbol va kurash musobaqalarining mahalla bosqichlari, "Mushoira", "Ibrat" va "Zakovat" tanlovlarning sektor bosqichlari, futbol va minifutbol musobaqalarining tuman va shahar bosqichlari, yengil atletika, stol tennis, vorkout musobaqalari hamda "Yosh kitobxon oila" tanlovining hududiy bosqichlari, "Besh tashabbus paralimpiadasi"ning respublika bosqichi o'tkazilgani ularga qator imkoniyatlarni taqdim etdi, desak, mubolag'a emas.

Shuningdek, mamlakatimizning barcha hududidagi sayilgohlar, madaniyat hamda istirohat bog'larida rassomlar ko'rgazmalari, mushoira kechalari, intellektual o'yinlar, turli viktorina va galakonsertlar tashkil etilgani ularni ham quvontirdi, ham yangi marralar sari ilhomlantirdi.

Oylik doirasida vazirlik, idora va tashkilotlar hamda xo'jalik birlashmalari xodimlari o'rtasida "Yilning eng faol yosh xodimi" ko'rik-tanlovi, "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etilgani ham ayni muddao bo'ldi. Bu ularga turli tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan hamkasblari bilan yaqindan tanishish, fikrlashishlari uchun yo'l ochdi.

Yana bir quvonarli hodisa shuki, bu yil nafaqat yurtimizdagi, balki xorijdagi yosh vatandoshlarimiz uchun davlatimizning diplomatik korpusi vakillari tomonidan bayram dasturlari tashkil etilmog'da. Pirovardida, ular ham katta shodiyonaning ishtirokchisiga aylanmog'da.

Joriy yilning yangi bir muhim yangiliklaridan biri – davlatimiz rahbarining xalqaro tadbirlarda bildirgan taklif va tashabbuslari ijrosini ta'minlash maqsadida yurtimizda ilk bor o'tkazilayotgan Butunjahon yoshlar festivalidir. U mamlakatimizning 5 ta hududi – Toshkent shahri va viloyati, Xorazm, Buxoro hamda Samarqandda bir vaqtning o'zida bo'lib o'tmoqda.

Festival doirasida 15 ta xalqaro tadbir uyushtirilib, ularga 150 ta davlatdan ming nafar xorijiy ishtirokchi taklif etilgan. Tadbirning ochilish marosimi kecha Samarqand shahridagi "Boqiy shahar" majmuasida bo'lib o'tdi.

Hafta davomida tadbirlar Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent shahri va viloyatda alohida dasturlar asosida o'tkaziladi. Yigit-qizlar o'rtasida sifatli ta'lim, talabalar almashinuvi va innovatsiya sohalarida hamkorlik bo'yicha 2 ta sessiyada muhokamalar olib boriladigan I O'zbekiston – Yaponiya yoshlar forumi, IT sohasidagi so'nggi tendensiyalar, kibernetika, sun'iy intellekt va boshqa tegishli mavzular haqida kecha sessiyalar, ma'ruzalar va seminarlar bo'lib o'tadigan Janubiy Koreya va Markaziy Osiyo yosh liderlar forumi, fan, madaniyat, sport, tadbirkorlik, ijtimoiy muhandislik, ta'lim va ijodiy sohalarni rivojlantirishga qaratilgan Islom hamkorlik tashkiloti yoshlar forumi kabi bir qator tadbirlar shular jumlasidan.

– 27 – 30-iyun kunlari Toshkent shahridagi Amir Temur xiyoboni, Sayilgoh, Zarafshon, Buyuk Turon va Matbuotchi ko'chalarida 20 ta pavilyondan iborat "Yoshlar shaharchasi" tashkil etiladi, – deydi Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Dilnoza Kattaxonova. – Ushbu pavilyonlarda mamlakatimiz yoshlari hamda xorijiy mehmonlar uchun tanlovlar, taqdimot va ko'rgazmalar o'tkaziladi. Festival ishtirokchilari pavilyonlardagi mashg'ulotlarni bajarib, ballarni qo'lga kiritishi va to'plagan ballarini kitoblar, sport, san'at, ta'lim to'garaklariga vaucherlar, sovg'alarga almashtirishi mumkin bo'ladi. Bu yil yoshlar bayrami o'zgacha o'tmoqda, buni ularning ko'zidagi quvonch, yuzlaridagi tabassumdan bilib olish qiyin emas.

Shuningdek, festival doirasida "Betakor O'zbekiston" fotoko'rgazmasi, ko'zi ojiz yoshlar ishtirokida "Orzu" xayriya ko'rgazmasi, o'zbek san'ati haftaligi va milliy liboslar namoyishi, ochiq osmon ostida konsert dasturlari, kino namoyishlari, turli millat yoshlarining paradi, yosh diplomatlar sammiti, BMT modeli, o'zbek tilida "Quvnoqlar va zukuklar do'stlik kubogi" musobaqasi, turli soha vakillarining yoshlar bilan uchrashuvlari va mahorat darslari o'tkazilishi ham ko'zda tutilgan.

"Yoshlar oyligi" va Butunjahon yoshlar festivali 30-iyun kuni poytaxtimizdagi "Humo Arena" majmuasidagi katta bayram dasturi bilan yakunlanadi.

"Xalq so'zi".

2024/2025 o'quv yilida oliy va professional ta'lim muassasalariga qabul bo'yicha test sinovlarida ishtirok etish uchun jami
894 279 nafar abituriyent ro'yxatdan o'tdi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabog. Offset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih M. Bekqulova.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 23.15 Topshirildi – 00.50

1 2 3 4 5 6